

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O‘RNI VA SAMARADORLIGI

Kamolova Madinaxon Sirojiddin qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti
universiteti ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya

Bugungi kunda ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, ona tili va adabiyot fanlari bo‘yicha multimedia vositalarining qo‘llanilishi darslarning interaktivligi, mazmunan boyligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada multimedia vositalarining lingvodidaktik asoslari, ularning ona tili va adabiyot darslaridagi afzalliklari, o‘quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli, mavjud muammolar va taklif etilayotgan yechimlar atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida respublikamizdagi mavjud ilmiy ishlanmalar, tajriba asosidagi kuzatuvlar va amaliyotga doir tavsiyalar asosida ilmiy-tahliliy yondashuv amalga oshirilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston sharoitida multimedia vositalari asosida ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitish istiqbollari, mazkur vositalarni yanada takomillashtirish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi, adabiyot darslari, multimedia vositalari, lingvodidaktika, axborot texnologiyalari, interaktiv ta’lim, zamonaviy pedagogika.

Abstract

Today, the issue of the effective use of modern information and communication technologies in the educational process has become one of the priorities of Public Policy. In particular, the use of multimedia tools in the native language and literary Sciences serves to increase the interactivity, wealth and effectiveness of classes. This article will thoroughly analyze the linguistic foundations of multimedia tools, their advantages in native language and literature lessons, the role of students in the development of language competencies, existing problems and proposed solutions. During the study, an in-depth scientific and analytical approach was carried out on the basis of existing scientific developments in our republic, experimental based observations and recommendations for practice. The article also describes the prospects for teaching native language and literature on the basis of multimedia tools in the conditions of Uzbekistan, ways to further improve these tools.

Keywords: native language education, literature classes, multimedia tools, linguodidactics, information technology, interactive education, modern pedagogy.

Kirish

So‘nggi yillarda dunyo ta‘lim tizimi jadal rivojlanmoqda va bu o‘zgarishlar raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng ko‘lamda joriy etilishi ta‘limda yangi pedagogik yondashuvlarni shakllantirishga olib keldi. Jumladan, ona tili va adabiyot darslarida multimedia texnologiyalarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ularning yordamida dars mazmuni boyitiladi, o‘quvchilarning til ko‘nikmalari va estetik didi rivojlanadi.

Multimedia vositalarining bu fanlardagi ahamiyati o‘quvchilarda ona tiliga va milliy adabiyotga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish kabi omillarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biroq bu jarayonda o‘qituvchining roli, darsda multimediadan oqilona foydalanish, texnik imkoniyatlarning mavjudligi ham muhim omillar qatoriga kiradi.

O‘zbekistonda ham bu borada bir qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda: “Raqamli ta‘lim” konsepsiyasi, “Yagona elektron ta‘lim platformasi”ning joriy qilinishi, elektron darsliklar va mobil ilovalarning yaratilishi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Ayni paytda esa, ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda bu vositalarning qanday tatbiq etilishi, ularning ta‘lim samaradorligiga ta‘siri, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari atroflicha o‘rganilishga loyiqdir. Prezident Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “ayni paytda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz turli ma‘lumotlarni, asosan, internet va ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda. Binobarin, ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug‘atlarni yaratish kerak. Internet imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib o‘zbek tilini keng targ‘ib etish bo‘yicha ishlarimizni kuchaytirishimiz lozim”. Darhaqiqat, internet rivojlanib borishi ta‘limda multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Asosiy qism

Ma‘lumki, multimedia vositalarining imkoniyatlaridan unumli foydalana olish o‘qituvchi va o‘quvchini yangi ta‘lim muhitiga olib kiradi, ko‘proq va kengroq ma‘lumot egallash uchun shart-sharoit yaratadi. Ona tilini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish o‘z samarasini ko‘rsatganligi sir emas. Tajribalardan shu ayonki, o‘quvchilar o‘qituvchining og‘zaki ma‘ruzasidan ko‘ra ko‘rgazmali vositalardan foydalanib tushuntirishiga ko‘proq qiziqar ekan. Ana shunda ular yetkazilayotgan ma‘lumotni ko‘proq yodida saqlab qolar ekan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta‘lim tizimida joriy etish, dars mashg‘ulotlarida ushbu texnologiyalarning turli shakllaridan samarali foydalanish nafaqat mazkur sohadagi bilim va malakalarning rivojlanishiga xizmat qiladi, vaholanki o‘quvchi dunyoqarashining shakllanishiga, o‘z yo‘lini mustaqil tanlashiga, shaxsiy fazilatlarining mukammallashuviga ta‘sir ko‘rsatadi, bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, o‘rganishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ko‘plab olimlarning fikriga ko‘ra, “AKT” o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanishiga ham

jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Matn, nutq, grafika, animatsiya, audio, video kabi turlicha usullarning kombinatsiyasidan yaratilgan yangi, zamonaviy mahsulotlardan ona tili mashg'ulotlarida unumli va o'rinli foydalanib darsning mazmuni va shaklini ta'minlash o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativ fikrlashlarini takomillashtirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Multimedia vositalari-bu turli axborot shakllari (matn, audio, video, grafik, animatsiya)ni bir tizimda uyg'unlashtirgan texnologiyalardir. Ular ona tili va adabiyot darslari jarayonida lingvodidaktik imkoniyatlarni kengaytiradi. Bunga quyidagilar kiradi:

Audiovizual vositalar: darslarda she'rlar, hikoyalar va dramatik asarlarning videolavhalari o'quvchining eshitish va ko'rish xotirasini kuchaytiradi.

Interaktiv platformalar: Quizlet, Kahoot, Moodle kabi platformalarda adabiy qahramonlar, mualliflar va badiiy asarlarni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

Virtual muhitlar: Zoom, Google Meet orqali interaktiv suhbatlar, sahna ko'rinishlarini namoyish etish mumkin.

Mobil ilovalar: ona tili grammatikasi, yozuv malakalarini rivojlantiruvchi o'yinli dasturlar mavjud.

Multimedia vositalari o'quvchilarning ona tili va adabiyot bo'yicha asosiy til kompetensiyalarini rivojlantiradi:

Tinglab tushunish: adabiy matnlarning audioversiyalari orqali o'quvchi tinglash malakasini rivojlantiradi.

O'qish: multimediali matnlar orqali o'quvchi matn mazmunini tahlil qiladi, qahramon xarakterlarini tushunadi.

Yozish: multimedia asosidagi topshiriqlar o'quvchilarning fikrni yozma bayon qilish salohiyatini oshiradi.

Gapirish: dramatik asarlarni sahnalashtirish, adabiy chiqishlar qilish orqali og'zaki nutq rivojlanadi.

O'zbekistonda ona tili va adabiyot darslarida multimedia texnologiyalarining tatbiqi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Quyidagi loyihalarni alohida ta'kidlash mumkin:

“Adabiyot darslari” videoresurslar to'plami.

“TV maktab” loyihasi doirasida efirga uzatilgan adabiyot saboqlari.

“Ona tili darslari” mobil ilovalari va interaktiv darslar.

Biroq, hali ham multimedia vositalarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Bu esa o'qituvchilarning AKT bo'yicha malakasining pastligi, texnik infratuzilmaning ba'zi hududlarda yetarli emasligi bilan bog'liq.

Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanadigan har bir shakl, vosita, metod va usullarning qo'llanish xususiyatlari mavjud. Pedagogik me'yor va mezonlarga rioya etish bu yerda ham o'z kuchini to'la saqlab qoladi. Bu siraga multimedia vositalaridan

darsning qaysi qismida, qancha miqdor va muddatda foydalanish ham oldindan puxta rejalashtirilishi joiz bo'ladi. Ularga rioya etmaslik o'quvchida zerikish, tushunmay qolish, paydo bo'lgan savollarni esidan chiqarib qo'yish holatlariga olib kelishi mumkin. O'qituvchi video qo'yilgan dars jarayonida boshqa narsaga chalg'imasligi, shu bilan birgalikda o'quvchi bilan bab-baravar jarayon ishtirokchisiga aylanishi lozim, aks holda jarayonning buzilishi, o'quvchilarda norozilik kayfiyati, parokandalik holatlari paydo bo'ladi.

Muammolar

Multimedia kontentning yetarli emasligi: O'zbek adabiyoti va ona tili bo'yicha sifatli multimedia materiallari (video, audiokitoblar, animatsiyalar) yetarli emas. Ko'plab o'quvchilar va o'qituvchilar eski yoki cheklangan resurslardan foydalanishga majbur.

Texnik jihozlanishdagi nomutanosiblik: Maktablar orasida texnik ta'minotda katta tafovut mavjud. Ba'zi ta'lim muassasalari zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlangan bo'lsa, boshqalarida hatto oddiy proyektor va internetga ulanish imkoniyati mavjud emas.

O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi pastligi: Ko'plab pedagoglar multimedia vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega emaslar. Bu esa ularning ijodiy yondashuviga va dars sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Metodik qo'llanmalar va normativ-huquqiy asoslarning yetarli emasligi: Ona tili va adabiyot fanlari uchun multimedia vositalarini qo'llashga oid maxsus metodik tavsiyalar, amaliy qo'llanmalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

O'quvchilar o'rtasida raqamli bo'linish: Ayrim o'quvchilar multimediadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan ijtimoiy qatlamdan ya'ni ularda internet vositalaridan foydalanishga sharoiti yo'q. Bu esa teng imkoniyatlar prinsipiga zid keladi.

Yechimlar va takliflar:

Yangi milliy multimedia kontentlar yaratish: O'zbekiston yozma va og'zaki adabiyoti asosida maxsus audiokitoblar, videodarsliklar, dramatik lavhalar, she'r ijrolari va didaktik animatsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Texnik bazani kuchaytirish: Har bir maktabga yuqori tezlikdagi internet, interaktiv doska, kompyuterlar va multimedia proyektorlarini yetkazib berish bo'yicha davlat dasturlari kengaytirilishi lozim.

O'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslari: Pedagogik kadrlar uchun multimedia texnologiyalari bilan ishlashga oid qisqa muddatli va uzoq muddatli o'quv kurslarini tashkil etish zarur. O'qituvchilar uchun multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqish ham o'qituvchilarga kata yordam beradi.

Metodik qo'llanmalar ishlab chiqish: Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan multimedia vositalari asosida dars o'tish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Ijtimoiy tenglikni ta'minlash: Raqamli vositalarga ega bo'lmagan o'quvchilar uchun jamoaviy kompyuter xonalari, mobil multimedia kutubxonalarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Monitoring va tahlil tizimini joriy qilish: Qanday multimedia vositasi samaraliroq natija bergani bo'yicha doimiy monitoring olib borish va tajriba asosida takomillashtirib borish muhim.

Xulosa

Demak, multimedia vositalari ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ular o'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi, o'z fikrini mustaqil va erkin ifoda etishga undaydi, tahliliy va tanqidiy fikrlash malakasini rivojlantiradi. Darslarga bo'lgan qiziqishni, e'tiborni oshirdi Ayniqsa, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli ta'lim islohotlari ona tili va adabiyot ta'limi metodikasini tubdan yangilashda muhim omil bo'lmoqda. Shuningdek, multimedia vositalarini yaratishda milliy kontentni ko'paytirish, o'qituvchilar malakasini oshirish, texnik ta'minotni yaxshilash – bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Kelajakda ushbu vositalar asosida zamonaviy, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan ona tili va adabiyot darslarini tashkil qilish orqali O'zbekiston ta'limi yanada rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Xalq so'zi, 2019-yil 21-oktyabr.
2. Kuldosheva Sanobar. Ona tili ta'limida multimediali usullardan foydalanish metodikasi. // O'zbekiston: til va madaniyat, 2023.
3. Suvankulov B. Ta'limda multimedia vositalaridan foydalanish: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. //pedagoglar.org, 2024.
4. Ziyaiddinova G. Adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanish. //Barqaror taraqqiyot va rivojlanish tamoyillari, 2024.
5. Po'latova E. O'zbekistonda raqamli ta'lim; tahlillar, muammolar va yechimlar. // Journal of new century innovations, 2024.

References:

1. Shavkat Mirziyoyevning O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Xalq so'zi, 2019-yil 21-oktyabr.
2. Kuldosheva Sanobar. Ona tili ta'limida multimediali usullardan foydalanish metodikasi. // O'zbekiston: til va madaniyat, 2023.

3. Suvankulov B. Ta'limda multimedia vositalaridan foydalanish: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. //pedagoglar.org, 2024.
4. Ziyaiddinova G. Adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanish. //Barqaror taraqqiyot va rivojlanish tamoyillari, 2024.
5. Po'latova E. O'zbekistonda raqamli ta'lim; tahlillar, muammolar va yechimlar. // Journal of new century innovations, 2024.

